QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Dsc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOVA TILLAOY MALIK QIZI

MINTAQADA SANOAT TARMOQLARINI HUDUDLARARO DIVERSIFIKATSIYALASH ORQALI KORXONALAR RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

UO‘K: 332.1:658.1(021)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economical sciences

RAXMONOVA TILLAOY MALIK QIZI
Mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish (Qashqadaryo viloyati misolida).....3

РАХМОНОВА ТИЛЛАОЙ МАЛИК КИЗИ
Формирование конкурентных преимуществ предприятий посредством межрегиональной диверсификации отраслей промышленности в регионе (на примере Кашкадарьинской области).....35

RAKHMONOVA TILLAOY MALIK KIZI
Establishing competitive advantages for enterprises through the inter-regional diversification of industrial sectors in the region (using the example of the Kashkadarya region)……71

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…..……..……...76

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Dsc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOVA TILLAOY MALIK QIZI

MINTAQADA SANOAT TARMOQLARINI HUDUDLARARO DIVERSIFIKATSIYALASH ORQALI KORXONALAR RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/Iqt7393 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Ergashev Erkin Iroqovich** Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.11.03-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “26” 11 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: info@qarshidu.uz).

Dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (585-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “13” 11 kuni tarqatildi.

(2026-yil “13” 11 dagi 42-raqamli reyestr bayonnomasi).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI ★ QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI ★

D.X. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi kengash raisi, i.f.d., professor

G‘.A. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi kengash kotibi, i.f.d. (DSc), professor

A.O. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichida hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, sanoat salohiyatini hududiy jihatdan muvozanatli rivojlantirish hamda korxonalar raqobat ustunligini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mintaqalarda sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning barqaror o‘sishini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda[1]. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi YAIM hajmi va uning tarkibiy tuzilmasida sezilarli farqlar bilan tavsiflanadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda jahon YAIM hajmi 100 trillion AQSh dollaridan oshgan bo‘lib, uning asosiy qismi sanoat va xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keladi[2]. Rivojlangan mamlakatlarda sanoatning YAIMdagi ulushi yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlar hisobiga shakllanadi va bu ularning global raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Jahonda sanoat diversifikatsiyasi nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki mintaqaviy tafovutlarni qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Globallashuvning kuchayib borishi sharoitida jahon bozorlarida raqobat darajasi ortayotgani konvergensiyalashning yangi yondashuvlarini qo‘llashni taqozo qilmoqda. Tumanlararo konvergensiyalash mintaqalarni barqaror rivojlantirish, iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarish va global virtual fabrikalar, jamiyatda konvergent kognitiv texnologiyalardan foydalanish, jamiyat bilan fan integratsiyasiga erishish yuzasidan muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan, Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash asosida korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish masalasi ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda hududlararo sanoat diversifikatsiyasining iqtisodiy mexanizmlari o‘rganiladi, korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish omillari aniqlanadi hamda Qashqadaryo viloyati misolida hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yangi O‘zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sanoat salohiyatini oshirish va tumanlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida kambag‘allikni kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish hamda sanoatning yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish maqsadi belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Diversifikatsiya hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlari yaratish, sanoatda qo‘shimcha qiymat hajmini oshirish va korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy statistika

[1]World Bank. World Development Indicators 2026. – Washington DC, 2024. https://econdata.com/dbinfo/releases/wbwt/

[2]OECD. Regional Development Policy Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-regional-outlook-2023_92cd40a0-en.html

qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,1 kvadrillion so‘mni tashkil etgan. Biroq hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmlarining sezilarli farqlanishi sanoat salohiyatini hududlar bo‘yicha muvozanatli rivojlantirish masalasi dolzarbligini ko‘rsatadi. Jumladan, 2025-yilda Toshkent shahrida 207,3 trln so‘mlik, Navoiy viloyatida 195,2 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, Qashqadaryo viloyatida ushbu ko‘rsatkich 47,8 trln so‘mni, Surxondaryo viloyatida esa 18,8 trln so‘mni tashkil etgan[3]. Mazkur ko‘rsatkichlar hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va sanoat tarkibidagi farqlarni tahlil qilish zarurligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”[4]gi, 2024-yil 13-martdagi PF-49-son “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[5]gi, 2022-yil 30-dekabrdagi PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6]gi, 2024-yil 20-dekabrdagi PF-223-son “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[7]gi farmonlari va 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”[8]gi, 2024-yil 15-avgustdagi PQ-295-son “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[9]gi qarorlari hamda hududlarni rivojlantirishga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish masalalari ko‘plab xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida keng miqyosda o‘rganilgan. Xorijlik olimlardan R.C.Allen, A.Gerschenkron, X.X.Sala-i-Martin, A.Maddison, J.Tinbergen, S.Dourik,

[3]O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. 10-sentyabr 2026-yil. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/70165-zbekiston-sanoatida-ajsi-ududlar-etakchi-3

[4] O‘zbekiston Respublikasining rasmiy veb-sayti Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/-6600413

[5] O‘zbekiston Respublikasining rasmiy veb-sayti Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/-6837135

[6] O‘zbekiston Respublikasining rasmiy veb-sayti Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/-6333225

[7] O‘zbekiston Respublikasining rasmiy veb-sayti Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/-7271094

[8] O‘zbekiston Respublikasining rasmiy veb-sayti Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/-3302438

[9] O‘zbekiston Respublikasining rasmiy veb-sayti Elektron manba: https://lex.uz/uz/docs/-7069813

J.Bradford[10], MDH mamlakatlarida esa N.P.Kuznetsova, G.V.Chernova, S.G.Golovina, S.V.Pugin, A.V.Brovkova, D.Y.Rudenko, K.Y.Zinkovskaya, A.V.Korotayev[11] va boshqalarning ishlarida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda konvergentlash mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda Mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishning ayrim jihatlari tadqiq etilgan. Bu borada tumanlarda sanoatni rivojlantirish, marketing, ekonometrika sohasida iqtisodchi olimlardan B.E.Tagayev, X.N.Abdullayeva, X.S.Muhitdinov[12] va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Shu bilan birga, viloyat va tumanlar kesimida sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash jarayonlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Xususan, tumanlar o'rtasidagi sanoat rivojlanishidagi tafovutlarning shakllanish sabablari, ularning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri hamda tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan kelib chiqib hududiy raqobat afzalliklarini aniqlash asosida maqsadli sanoat dasturlarini ishlab chiqish masalalari chuqur ilmiy asoslanmagan. Mazkur yondashuv Qashqadaryo viloyati misolida sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilganligi bilan mintaqa iqtisodiyoti yo'nalishidagi mavjud tadqiqotlardan farqlanadi hamda zamonaviy iqtisodiy rivojlanish talablari bilan bevosita uyg'unlashadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasining "Milliy

[10]Allen R.C. Global Economic History. Oxford: Oxford University Press, 2011; Gerschenkron A. Economic Backwardness in Historical Perspective. In B. F. Hoselitz (Ed.). The Progress of Underdeveloped Areas. Chicago: University of Chicago Press, 1952; Sala-i Martin X.X. The classical approach to convergence analysis // The Economic Journal.1996. Vol. 106. N 437. P. 1019–1036; Maddison A. The World Economy, Vol. 1: A Millennial Perspective, OECD Publishing, 2001; Tinbergen, J. Do Communists and free economies show a Converging Pattern? // Soviet Studies. Vol. 12. Issue 4. 1961. Pp. 333-341. URL: http://dx.doi.org/10.1080/09668136108410255. Broadberry S., Wallis J.J. Growing, Shrinking, and Long Run Economic Performance. Historical Perspectives on Economic Development, Technical Report. National Bureau of Economic Research, 2017. Новое индустриальное общество: Per. s angl. / Dzh. Gehlbreit. M.: OOO «Izdatel'stvo AST»: OOO «TranzitknigA»; – SPb.: Terra Fantastica, 2004. – 602 s.; Dowrick St., Bradford, J. DeLong Globalization and Convergence. –Globalization in Historical Perspective. University of Chicago Press, 2003.

[11]Кузнецова Н.П., Чернова Г.В. Конвергенция в сфере финансовых услуг / Н.П.Кузнецова, Г.В.Чернова // Вестник СПб ГУ. Серия 5. – 2001. – Выпуск 4. – №23. – С. 129-136; Головина С.Г., Пугин С.В. Оценка процессов конвергенции (дивергенции) в развитии районов Курганской области / С.Г.Головина, С.В.Пугин // Вестник АГАУ. – 2014. – №12 (122). – С. 162-166; Бровкова А.В. Совершенствование подходов к статистическому анализу социально-экономического неравенства конвергенции регионов России / А.В.Бровкова. // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. – 2014. – №2. – С. 113-117; Руденко Д.Ю., Зинковская К.Ю. Процессы конвергенции в глобальной экономике / Д.Ю.Руденко, К.Ю.Зинковская // Век глобализации. – 2015. – №1. – С. 114-124; Коротаев А.В. Глобальный демографический переход и фазы дивергенции — конвергенции центра и периферии мир-системы // Вестник института экономики Российской академии наук. – 2015. – № 1. – С. 149-162.

[12]Tagayev B.E., Abdullayeva X.N Intellektual kapitaldan foydalanish korxona rivojlanishining asosidir // "Iqtisodiyot va turizm" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman to'plami. 2023; Mukhitdinov Khudayar Suyunovich, Agriculture cluster implementation in a production system Scopus journal of northeastern University Volume 25 Issue 04, 2022 ISSN: 1005-3026 https://dbdxxb.cn/ Original Research 1092-1106 Paper Submitted: 17/10/2022 Accepted: 16/11/2022.

iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda raqobat ustunligini shakllantirishning samarali mexanizmlari bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning iqtisodiy mohiyati va zaruratini nazariy jihatdan asoslab berish.

mintaqa sanoat tarmoqlarini hududiy diversifikatsiyalashning korxonalar raqobatbardoshligiga ta’sirini aniqlash va baholash.

sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash hamda raqobat ustunligini ta’minlash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash jarayonida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat hududlarining rolini tahlil qilish.

sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash modellari va usullarini ishlab chiqish hamda ularning innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan uzviy bog‘liqligini asoslash.

mintaqa sanoatini hududlararo diversifikatsiyalash asosida mintaqaviy rivojlanishni baholashning iqtisodiy modellarini takomillashtirish.

Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi va diversifikatsiya holatini kompleks tahlil qilish.

hududlararo diversifikatsiyalash asosida korxonalar raqobat ustunligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan hamda sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash jarayonida ishtirok etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash jarayonida korxonalarning raqobat ustunligini shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, anketa-so‘rov, qiyosiy va dinamik tahlil, SWOT-tahlil, tizimli yondashuv, regression va korrelyatsion tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning korxonalar raqobatbardoshligiga ta’sirini baholash uchun RU = f(KS + BS + TI + DS) integratsiyalashgan modeli (KS – kapital va bozor salohiyati; BS – boshqaruv va inson kapitali; TI – texnologik va innovatsion salohiyat; DS – davlat qo‘llab-quvvatlashi hamda hududiy sanoat siyosati) hududiy diversifikatsiya orqali

xarajatlarni optimallashtirish, innovatsion faollikni oshirish va risklarni hududiy taqsimlash natijasida barqaror raqobat ustunligi ilmiy asoslangan.

EIZ va KSHlarning hududlararo sanoat diversifikatsiyasiga ta’sirini baholash uchun uch blokli (R–P–M) integrallashgan indeks modeli ishlab chiqilib (ko‘rsatkichlar min–max usulida 0–1 oralig‘iga keltirilib, yakuniy indeks $I_E = \alpha I_R + \beta I_P + \gamma I_M$orqali hisoblanadi) hamda EIZ va KSHni qiyosiy baholash uchun $K_{comp} = I_E^{EIZ} / I_E^{KSH}$koeffitsiyenti samaradorlikni yuqori–o‘rta–past guruhlarga ajratish orqali hududiy sanoat siyosatini differensial yuritish zarurligini ilmiy asoslab berilgan.

Mintaqa sanoat korxonalar raqobat ustunligini baholash uchun hududiy iqtisodiy salohiyat (HS), diversifikatsiya darajasi (DD) va dinamik input–output omillari (DIO)ga asoslangan integrallashgan DD Herfindahl–Hirschman indeksi orqali eksport–import va kapital dinamikasi baholanib, raqobat ustunligi RU = f(HS/DD/HS×DD) ko‘rinishida modellashtirilib, hududiy salohiyat va tarkibiy muvozanatning sinergik ta’siri ilmiy asoslangan.

Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash natijasi asosida ekonometrik va trend modellardan foydalanib, 2026–2030-yillarga mo’ljalangan prognoz ko’rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

ishlab chiqilgan RU = f(KS + BS + TI + DS) modeli asosida mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash jarayonida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor omillari aniqlanib, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va risklarni hududiy taqsimlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

uch blokli (R–P–M) integrallashgan indeks modeli asosida EIZ va KSHlar samaradorligi hududlar kesimida baholanib, ularni yuqori–o‘rta–past guruhlarga ajratish orqali investitsiya va sanoat siyosatini differensial yuritish mexanizmi taklif etildi.

HS, DD va DIO omillariga asoslangan integrallashgan model yordamida hududiy iqtisodiy salohiyat va diversifikatsiya darajasining korxonalar raqobat ustunligiga ta’siri miqdoriy baholanib, resurslarni ustuvor tarmoqlarga yo‘naltirish hamda sanoat klasterlarini shakllantirish bo‘yicha amaliy yo‘nalishlar belgilandi.

2026–2030-yillarga mo‘ljallangan ekonometrik prognoz natijalari asosida Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining kutilayotgan o‘sish dinamikasi aniqlanib, investitsiya siyosati, tarkibiy modernizatsiya va hududlararo diversifikatsiyani jadallashtirish bo‘yicha o‘rta muddatli strategik qarorlar qabul qilish uchun amaliy asos yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yondashuvlar va qo‘llanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi me’yoriy-huquqiy hujjatlaridan olinganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi, Qashqadaryo viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi taklif va tavsiyalarining hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish istiqbollarini aniqlash va mintaqaviy innovatsion salohiyat samaradorligini oshirish bo‘yicha uslubiy ahamiyatga molik bo‘lgan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqilgani subyektlar faoliyatini tashkil etish, tumanlarda sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy natijalari innovatsion rivojlanishning strategiyalari, baholash mezonlari va usullari hamda ekonometrik modellarini takomillashtirishga ham yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining “Hududlarni 2023–2027-yillarda rivojlantirish dasturi”, “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari”, “2023-2025-yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash” davlat dasturlarini amalga oshirishda hamda oliy ta’lim tizimida “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Mahalliy va mintaqaviy rivojlanish iqtisodiyoti”, “Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash” kabi o‘quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish bo’yicha ilmiy natijalar asosida:

mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning korxonalar raqobatbardoshligiga ta’sirini baholash uchun RU = f(KS + BS + TI + DS) integratsiyalashgan modeli (KS – kapital va bozor salohiyati; BS – boshqaruv va inson kapitali; TI – texnologik va innovatsion salohiyat; DS – davlat qo‘llab-quvvatlashi hamda hududiy sanoat siyosati) hududiy diversifikatsiya orqali xarajatlarni optimallashtirish, innovatsion faollikni oshirish va risklarni hududiy taqsimlash natijasida barqaror raqobat ustunligini aniqlash bo‘yicha taklif Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish va 2025-yil 15-apreldagi 181-4-0-Q/25 sonli qarori ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 19-oktyabrdagi 02-02/13768-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlararo diversifikatsiya jarayonida resurslardan samarali foydalanish darajasi oshdi, ishlab chiqarish xarajatlari optimallashtirildi, innovatsion faollik kengaydi va sanoat korxonalarining ichki hamda tashqi bozordagi raqobatbardoshligi mustahkamlandi;

EIZ va KSHlarning hududlararo sanoat diversifikatsiyasiga ta’sirini baholash uchun uch blokli (R–P–M) integrallashgan indeks modeli ishlab chiqildi (ko‘rsatkichlar min–max usulida 0–1 oralig‘iga keltirilib, yakuniy indeks $I_E = \alpha I_R + \beta I_P + \gamma I_M$orqali hisoblanadi) hamda EIZ va KSHni qiyosiy baholash uchun $K_{comp} = I_E^{EIZ} / I_E^{KSH}$koeffitsiyenti taklif asosida Qashqadaryo viloyati tumanlari misolida qo‘llanib, samaradorlikni yuqori–o‘rta–past guruhlarga ajratish orqali hududiy sanoat siyosatini differensial yuritish bo‘yicha taklif Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish va 2025-yil 15-apreldagi 181-4-0-Q/25 sonli qarori

ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 19-oktyabrdagi 02-02/13768-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida investitsiya resurslarini yuqori samarador hududlarga ustuvor yo‘naltirish, o‘rta va past samarador hududlarda infratuzilma hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar belgilandi. Bu esa hududlararo sanoat diversifikatsiyasini muvozanatli rivojlantirish, sanoat siyosatini differensial yuritish hamda EIZ va KSHlar orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qildi;

mintaqa sanoat korxonalar raqobat ustunligini baholash uchun hududiy iqtisodiy salohiyat (HS), diversifikatsiya darajasi (DD) va dinamik input–output omillari (DIO)ga asoslangan integrallashgan DD Herfindahl–Hirschman indeksi orqali eksport–import va kapital dinamikasi baholanib, raqobat ustunligi RU = f(HS/DD/HS×DD) ko‘rinishida modellashtirilib, hududiy salohiyat va tarkibiy muvozanatning sinergik ta’siri bo‘yicha taklif Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish va 2025-yil 15-apreldagi 181-4-0-Q/25 sonli qarori ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 19-oktyabrdagi 02-02/13768-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida resurslarni ustuvor tarmoqlarga manzilli yo‘naltirish, eksport salohiyatini oshirish, importga qaramlikni kamaytirish hamda kapitalning samarali aylanishini ta’minlash imkoniyati kengaydi. Bu esa hududiy sanoat tuzilmasining muvozanatli rivojlanishiga va korxonalar raqobat ustunligining barqaror mustahkamlanishiga xizmat qildi;

Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash sharoitida 2004–2025-yillar ma’lumotlari asosida ekonometrik va trend modellar ishlab chiqilib, 2026–2030-yillarga prognoz hisoblandi hamda 2030-yilga kelib sanoat ishlab chiqarish hajmining 2025-yilga nisbatan 4,8 barobargacha o‘sishi bo‘yicha taklif Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish va 2025-yil 15-apreldagi 181-4-0-Q/25 sonli qarori ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 19-oktyabrdagi 02-02/13768-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududiy sanoat siyosatini prognoz ko‘rsatkichlarga mos ravishda optimallashtirish, yuqori o‘sish sur’atiga ega tarmoqlarni ustuvor qo‘llab-quvvatlash hamda resurslarni samarali taqsimlash imkoniyati yaratildi. Bu esa 2030-yilgacha sanoat ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishini ta’minlash va korxonalar raqobat ustunligini mustahkamlash uchun amaliy zamin bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari izohlab berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash va korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari**” nomli birinchi bobida mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashning iqtisodiy mohiyati va zarurati, mintaqada sanoat tarmoqlarini hududiy diversifikatsiyalashning korxonalar raqobatbardoshligiga ta’siri va sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash va raqobat ustunligini ta’minlash bo‘yicha xorijiy tajribalar o’rganilgan va tadqiq etilgan.

Mintaqada sanoat korxonalarini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish ko‘p jihatdan davlatning samarali sanoat siyosatiga bog‘liqdir. Sanoat siyosati mamlakat yoki mintaqa miqyosida sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va boshqarishga qaratilgan institutsional, iqtisodiy hamda tashkiliy mexanizmlar majmuini anglatadi[13]. Xususan, bozor kuchining mavjudligi, axborot assimetriyasi, ijobiy va salbiy tashqi ta’sirlar (jumladan, infratuzilma bilan bog‘liq omillar) hamda qisqa muddatli kon’yunkturaviy nomutanosibliklar sharoitida davlat aralashuvi iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi[14].

Bu yondashuv sanoat siyosatining real iqtisodiy natijalarini aniq baholash imkonini beradi. Sanoat siyosatini ishlab chiqish va shakllantirish jarayonida siyosat menejerlari va ishlab chiquvchilar alohida bir siyosat turini takomillashtirish bilan cheklanib qolmasdan, turli siyosat instrumentlarining optimal kombinatsiyasini shakllantirishga e’tibor qaratishlari lozim. Kompleks yondashuv sanoat rivojlanishining barqarorligini ta’minlaydi hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi (1-rasm).

[13] Rodrik D. Industrial policy for the twenty-first century // Harvard University Working Paper. – 2004. – 57 p.
[14] Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2000. – 823 p.



1-rasm. Mintaqada sanoat siyosati sharoitida korxona rivojlanishining asosiy omillari va strategik yo‘nalishlari modeli[15]

1-rasmda korxona rivojlanish strategiyasini shakllantiruvchi asosiy tarkibiy omillar tizimli va o‘zaro bog‘liq holda aks ettirilgan. Modelga ko‘ra, korxonaning barqaror raqobat ustunligi to‘rtta fundamental omil – kapital va bozor salohiyati, kadrlar va boshqaruv sifati, texnologik daraja va innovatsion qobiliyat hamda risklarni boshqarish va ijtimoiy mas’uliyat – integratsiyasi asosida shakllanadi.

Mintaqada sanoat siyosati samaradorligi korxona darajasidagi ichki resurs salohiyati, hududiy infratuzilma va davlatning selektiv qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘zaro integratsiyalashganda maksimal natija beradi. Ya’ni yuqoridagi nazariy tahlillarga asoslanib, tadqiqot jarayonida quyidagi konseptual model taklif etiladi:

Korxona raqobat ustunligini shakllantirishning hududiy-diversifikatsion modeli Korxona raqobat ustunligi (RU) quyidagi omillarning funksiyasi sifatida ifodalanadi:

RU = f (KS + BS + TI + DS)

Bu yerda:

KS – kapital va bozor salohiyati;

BS – boshqaruv va inson kapitali sifati;

TI – texnologik daraja va innovatsion qobiliyat;

DS – davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va hududiy sanoat siyosati.

Modelga ko‘ra, agar hududlararo diversifikatsiya darajasi (HD) oshsa, u holda:

- ishlab chiqarish risklari kamayadi;
- resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi;
- kooperatsion aloqalar kengayadi;
- natijada RU darajasi oshadi.

Raqamli texnologiyalarning biznes jarayonlariga integratsiyalashuvi sanoat korxonalarida qiymat yaratish mexanizmlarini tubdan yangilamoqda. Raqamli platformalar, ma’lumotlar tahlili- data analytics va avtomatlashtirish vositalari

[15] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan

marketing hamda logistika sohalarida resurslarni moslashtirish, ta’minot zanjirlarini muvofiqlashtirish va tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. M.Porter raqobat ustunligining shakllanishida qiymat zanjiri bo‘g‘inlari o‘rtasidagi samarali uyg‘unlik va xarajatlarni optimallashtirish muhimligini ta’kidlagan bo‘lib, raqamli texnologiyalar aynan ushbu bo‘g‘inlarda tezkorlik va shaffoflikni kuchaytiradi[16].

Shu bilan birga, investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlar sanoat korxonalarining kapital va bozor omillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa ilgari ishlab chiqilgan nazariy modelda (RU = f(KS + BS + TI + DS)) ko‘rsatilgan DS – davlat qo‘llab-quvvatlash omilining amaliy ifodasidir.

Umuman olganda, O‘zbekistonda qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar integratsiyalashgan sanoat siyosati modelini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ular:

- hududlararo sanoat diversifikatsiyasini rag‘batlantiradi;
- innovatsion va texnologik modernizatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi;
- investitsion jozibadorlikni oshiradi;
- sanoat klasterlari va kooperatsion aloqalarni rivojlantiradi;
- raqamli transformatsiya orqali ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytiradi.

Demak, milliy me’yoriy-huquqiy baza nazariy jihatdan Porter, Lin, Rodrik va Castells konsepsiyalarining integratsiyalashgan modeliga yaqinlashib, mintaqaviy sanoat siyosati orqali korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishning institutsional asosini yaratmoqda.

M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan “olmos” (diamond) modeli raqobatbardoshlikni belgilovchi omillarni tizimli ravishda izohlaydi. Unga ko‘ra, har qanday mamlakat yoki mintaqaning xalqaro raqobatdagi muvaffaqiyati to‘rtta asosiy omil bilan belgilanadi:

1. omil sharoitlari (factor conditions) – mehnat resurslari, tabiiy resurslar, infratuzilma va texnologik salohiyat;
2. talab sharoitlari (demand conditions) – ichki bozor talabining sifati va hajmi;
3. tarmoqlararo bog‘liqlik va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar (related and supporting industries);
4. firma strategiyasi, tuzilmasi va ichki raqobat muhiti (firm strategy, structure and rivalry).

Hududiy diversifikatsiya ushbu to‘rtta determinantning har biriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turli hududlarda ishlab chiqarish omillarining maqbul taqsimlanishi omil sharoitlarini yaxshilaydi; ichki bozor segmentatsiyasi va talabning hududiy farqlanishi talab sharoitlarini kengaytiradi; klasterlashuv va kooperatsiya tarmoqlararo bog‘liqlikni mustahkamlaydi; ichki raqobat muhitining kuchayishi esa firma strategiyasining samaradorligini oshiradi (2-rasm).

[16] Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.



2-rasm. Porterning “olmos” modeli asosida hududiy sanoat diversifikatsiyasi va korxona raqobatbardoshligi o‘zaro bog‘liqligi[17]

Demak, mintaqada sanoat tarmoqlarini hududiy diversifikatsiyalash korxona raqobatbardoshligini oshirishning tizimli va ko‘p darajali mexanizmi bo‘lib, u makro va mikro determinantlarning o‘zaro integratsiyasi orqali barqaror raqobat ustunligini shakllantiradi. 2-rasmda M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan “olmos” modeli hududiy sanoat diversifikatsiyasi sharoitiga moslashtirilgan holda tasvirlangan. Model markazida “Hududiy diversifikatsiya” tushunchasi joylashgan bo‘lib, u makro va mikro omillarning integratsiyasi orqali korxonalar raqobatbardoshligini shakllantirish mexanizmini ifodalaydi.

Hududiy diversifikatsiya ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Turli hududlarda mehnat resurslari narxi, xomashyo bazasi, energiya ta’minoti va logistika sharoitlari farqlanadi. Korxonalarning ushbu omillarni hisobga olgan holda joylashuvi tannarxni pasaytirish va xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasini amalga oshirish imkonini yaratadi. Natijada korxona narx ustunligiga ega bo‘ladi va bozor ulushini kengaytiradi. Innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi va turli mintaqalarda ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi, texnoparklar, sanoat klasterlari va malakali kadrlar salohiyatining mavjudligi korxonalarga yangi mahsulotlar ishlab chiqish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish imkonini beradi. Bu esa mahsulot differensiasiyasini kuchaytiradi va korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantiradi. Hududiy diversifikatsiya risklarni kamaytirishda bir hududga haddan tashqari bog‘lanish

[17] Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.

iqtisodiy beqarorlik, resurs tanqisligi yoki ekologik cheklovlar ta’sirini kuchaytirishi mumkin. Ishlab chiqarish quvvatlarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi esa tashqi shoklar ta’sirini yumshatadi va barqarorlikni ta’minlaydi. Bu jihat ayniqsa global raqobat kuchaygan sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, hududiy diversifikatsiya kooperatsion aloqalarni kengaytiradi va tarmoqlararo integratsiyani kuchaytiradi. Sanoat klasterlari va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlarning rivojlanishi qiymat zanjirini chuqurlashtirib, sinergiya samaradorligini oshiradi. Bu esa umumiy mehnat unumdorligini ko‘paytiradi va korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda, hududiy diversifikatsiyalash korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishning ko‘p omilli mexanizmi bo‘lib, u xarajatlar samaradorligi, innovatsion rivojlanish, risklarni boshqarish va bozor moslashuvchanligini bir vaqtning o‘zida ta’minlaydi. Mazkur jarayon makroiqtisodiy siyosat, infratuzilma rivoji va korxona strategiyasi bilan uyg‘unlashganda barqaror raqobat ustunligi shakllanadi.

Dissertatsiyaning “**Mintaqa sanoatni hududlararo diversifikatsiyalash asosida mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari va tahlili**” nomli ikkinchi bobida mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalashda erkin iqtisodiy va kichik sanoat hududlarning tahlili, sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash modellari va usullarining innovatsion rivojlanish strategiyalari bilan qiyosiy tavsifi hamda korxonalar raqobat ustunligiga ta’siri va mintaqa sanoatini hududlararo diversifikatsiyalash asosida mintaqaviy rivojlanishni baholash modelilari tadqiq etilgan.

Hududlararo sanoat diversifikatsiyasi va korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish jarayonida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) hamda kichik sanoat hududlari (KSH) muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, maxsus iqtisodiy hududlar investitsiyalarni jalb etish, sanoat infratuzilmasini shakllantirish, eksport salohiyatini oshirish hamda yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zonalar odatda maxsus soliq, bojxona va valyuta rejimiga ega bo‘lib, investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratishga qaratilgan. Ushbu hududlarda infratuzilma oldindan tayyorlanadi, yer maydonlari ajratiladi va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlanadi. Natijada ishlab chiqarish jarayonlarini tezkor tashkil etish va investitsiya xarajatlarini qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa korxonalarning bozorga kirish tezligini oshiradi va raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kichik sanoat hududlari esa yirik sanoat korxonalari atrofida kooperatsion tarmoqlarni shakllantirib, butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Bu jarayon hududiy diversifikatsiya samaradorligini oshiradi va sanoatning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shunday qilib, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat hududlari mintaqada sanoat tarmoqlarini hududiy diversifikatsiyalashning institutsional asosini tashkil etadi.

Ular investitsiyalarni jalb etish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish hamda qiymat zanjirini chuqurlashtirish orqali korxonalarning barqaror raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmlarni kompleks ravishda qo‘llash hududiy iqtisodiyotning uzoq

muddatli barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Shu sababli SWOT tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat hududlarining SWOT-tahlili[18]

Kuchli jihatlar (Strengths)	**Zaif jihatlar (Weaknesses)**
Maxsus soliq va bojxona imtiyozlari mavjudligi	Hududiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi (ayrim zonalarda)
Investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhit	Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushining pastligi
Tayyor muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi	Mahalliylashtirish darajasining yetarli emasligi
Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyati	Kadrlar malakasining zamonaviy talabga to‘liq mos emasligi
Yirik sanoat loyihalarini joylashtirish imkoniyati	Byurokratik jarayonlarning ayrim hollarda murakkabligi
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
Yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish	Global bozor kon’yunkturasining o‘zgaruvchanligi
Xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish	Investitsion raqobatning kuchayishi (qo‘shni davlatlar bilan)
Innovatsion klasterlarni shakllantirish	Xomashyo eksportiga haddan tashqari bog‘liqlik
Texnologiya transferi va mahalliylashtirishni kengaytirish	Energetik va logistika xarajatlarining oshishi
Hududiy sanoat diversifikatsiyasini jadallashtirish	Valyuta va moliyaviy risklar

SWOT-tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, EIZ va KSHlar hududiy sanoat diversifikatsiyasining bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlari hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zonalar asosan yirik investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini oshirish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qilsa, kichik sanoat hududlari mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kooperatsiya zanjirlarini shakllantirish va bandlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

EIZ va KSHlarning samaradorligini baholashda muhim metodik yondashuv - hududiy natijalar (makro) va korxona natijalari (mikro)ni bir vaqtning o‘zida qamrab oluvchi ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishdir. Mazkur yondashuv asosida baholash modeli uch blokdan iborat: (I) resurs–infratuzilma bloki, (II) ishlab chiqarish–innovatsiya bloki, (III) bozor–raqobat bloki. Har bir blok bo‘yicha standartlashtirilgan ko‘rsatkichlar hisoblanadi va yakunda integrallashgan indeks aniqlanadi.

I) Ko‘rsatkichlar tizimi (indikatorlar)

A. Resurs–infratuzilma bloki (R)

- R_1: infratuzilma tayyorgarligi indeksi (elektr, gaz, suv, yo‘l, logistika)
- R_2: yer maydonidan foydalanish koeffitsienti (bandlik darajasi)
- R_3: investitsiya jalb qilish (1 gektarga yoki 1 rezidentga)
- R_4: davlat qo‘llab-quvvatlashi intensivligi (imtiyoz, subsidiyalar ulushi)

[18] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

B. Ishlab chiqarish–innovatsiya bloki (P)

- P_1: sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘sishi (rezidentlar bo‘yicha)
- P_2: mehnat unumdorligi (1 ishchiga ishlab chiqarish)
- P_3: mahalliylashtirish darajasi (xomashyo/komponentlar ulushi)
- P_4: innovatsion faollik (yangi mahsulot ulushi, ITTKI xarajatlari, patent/ariza)

C. Bozor–raqobat bloki (M)

- M_1: eksport ulushi (ishlab chiqarishda eksportning hissasi)
- M_2: raqobat ustunligi ko‘rsatkichi (tannarx pasayishi yoki narx/sifat indeksi)
- M_3: kooperatsiya darajasi (subpudrat shartnomalari, klaster aloqalari)
- M_4: barqarorlik (korxonalar omon qolish darajasi, moliyaviy ko‘rsatkichlar)

II) Ko‘rsatkichlarni standartlashtirish (Cambria Math formatida)

Turli birlikdagi ko‘rsatkichlarni taqqoslash uchun min–max standartlashtirish qo‘llanadi.

Agar ko‘rsatkich “katta bo‘lsa yaxshi” bo‘lsa:

$$Z_i = \frac{X_i - \min(X)}{\max(X) - \min(X)}$$

Agar ko‘rsatkich “kichik bo‘lsa yaxshi” (masalan, tannarx, logistika xarajati) bo‘lsa:

$$Z_i = \frac{\max(X) - X_i}{\max(X) - \min(X)}$$

Bu yerda: X_i- i-hudud (yoki i-zona) bo‘yicha ko‘rsatkich qiymati, Z_i- 0 dan 1 gacha keltirilgan standart qiymat.

III) Blok indekslari va umumiy integral indeks

Har bir blok bo‘yicha o‘rtacha vaznli indeks hisoblanadi:

$$I_R = \sum_{k=1}^{4} w_{Rk} Z_{Rk}, I_P = \sum_{k=1}^{4} w_{Pk} Z_{Pk}, I_M = \sum_{k=1}^{4} w_{Mk} Z_{Mk}$$

Umumiy samaradorlik indeksi:

$$I_E = \alpha I_R + \beta I_P + \gamma I_M$$

Bu yerda: I_E- EIZ/KSH samaradorlik indeksi; I_R, I_P, I_M- blok indekslari; α, β, γ- bloklarning umumiy vaznlari ($\alpha + \beta + \gamma = 1$).

Tadqiqotda tavsiya etiladigan bazaviy vaznlar (mantiqiy asos: natijaga yo‘naltirilganlik): $\alpha = 0.30$(infratuzilma-resurs), $\beta = 0.40$(ishlab chiqarish-innovatsiya), $\gamma = 0.30$(bozor-raqobat). Agar sizda ekspert baholash (AHP) bo‘lsa, vaznlar ekspertlar asosida aniqlanadi. Modelning talqin mezonlari asosan

Hisoblangan $I_E$qiymatiga ko‘ra EIZ/KSH samaradorligi quyidagicha baholanadi:

- $0.00 \leq I_E < 0.40$- past samaradorlik (infratuzilma/rezidentlar/bozor aloqalari sust)
- $0.40 \leq I_E < 0.70$- o‘rtacha samaradorlik (o‘sish bor, lekin diversifikatsiya va eksport cheklangan)
- $0.70 \leq I_E \leq 1.00$- yuqori samaradorlik (qiymat zanjiri, kooperatsiya va innovatsiya kuchli)

EIZ va KSHni qiyosiy tahlil qilish usuli

EIZ va KSHni bevosita solishtirish uchun quyidagi koeffitsient kiritilishi mumkin:

$$K_{comp} = \frac{I_E^{EIZ}}{I_E^{KSH}}$$

$K_{comp} >$ 1bo‘lsa, EIZ samaradorligi yuqori;

$K_{comp} <$ 1bo‘lsa, KSH samaradorligi yuqori.

Bu natija hududiy sanoat siyosati instrumentlarini tanlashda (qaysi hududda EIZ, qaysida KSH mexanizmi ko‘proq ishlashi) asos bo‘la oladi.

Taklif etilgan model EIZ va KSHning:

- investitsiya jalb etish natijadorligi;
- ishlab chiqarish samaradorligi;
- innovatsion faollik;
- eksport va kooperatsiya aloqalari;
- hududiy diversifikatsiya jarayoniga qo‘shgan hissasi

bo‘yicha kompleks baholashni ta’minlaydi.

Model natijalari hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish, resurslarni qayta taqsimlash hamda samarador zonalarni kengaytirish yoki past samarador zonalarda institutsional islohotlar kiritish bo‘yicha ilmiy asoslangan qarorlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Hududiy sanoat diversifikatsiyasining samaradorligini kompleks baholash maqsadida ko‘p mezonli integrallashgan indeks modeli ishlab chiqildi. Mazkur model hududlar kesimida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va kichik sanoat hududlari (KSH) faoliyatining iqtisodiy, investitsion va ijtimoiy natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi va model quyidagi bosqichlarda shakllantirildi (2-rasm).



2-rasm. EIZ va KSH samaradorligini baholashning ko‘p bosqichli konseptual-analitik modeli[19]

[19] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

Mazkur rasmda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va kichik sanoat hududlari (KSH) samaradorligini baholashning ko‘p bosqichli konseptual mexanizmi tizimli yondashuv asosida aks ettirilgan. Model to‘rtta o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat bo‘lib, hududiy sanoat diversifikatsiyasining natijadorligini kompleks baholash imkonini beradi. Uning afzalligi shundaki, u iqtisodiy, investitsion va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni integratsiyalashgan holda baholash imkonini beradi hamda mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish uchun amaliy asos yaratadi.

Tadqiqotda taklif etilgan model EIZ va KSH faoliyatining hududiy samaradorligini ko‘p mezonli tahlil asosida aniqlash imkonini beradigan bu modellarning afzalligi shundaki:

- hududlararo qiyosiy baholashni ta’minlaydi;
- sanoat diversifikatsiyasi va raqobat ustunligini integrallashgan tarzda baholaydi;
- hududlarni yuqori, o‘rta va past samaradorlik guruhlariga ajratish imkonini beradi.

Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida qo‘llanildi va hududiy sanoat siyosatini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishga xizmat qildi (2-jadval).

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida EIZ va KSHlarning samaradorlik indikatorlari bo‘yicha solishtirma tahlili[20]

№	Zona turi	Hudud	Ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)	Jon boshiga sanoat (ming so‘m)	Investitsiya faolligi	Eksport yo‘nalishi	Diversifikatsiya darajasi	Bandlik ta’siri	Umumiy samaradorlik bahosi*
1	EIZ	Koson tumani	yuqori	o‘rta–yuqori	4	2	4	3	0.72
2	Sanoat markazi (EIZ tip)	Nishon tumani	juda yuqori	juda yuqori	5	1	3	5	0.81
3	Sanoat markazi (EIZ tip)	Qarshi shahri	yuqori	yuqori	5	2	4	5	0.78
4	KSH (faol)	Muborak tumani	o‘rta	o‘rta	3	0	3	3	0.58
5	KSH (faol)	Shahrisabz shahri	o‘rta	o‘rta	3	0	3	3	0.55
6	KSH (faol)	Mirishkor–Kasbi	o‘rta	o‘rta	2	0	2	3	0.52
7	Potensial KSH	Ko‘kdala	past	past	1	0	1	1	0.30

[20] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

8	Potensial KSH	Qamashi	past	past	1	0	1	1	0.33
9	Potensial KSH	Chiroqchi	past	past	1	0	1	2	0.36
10	Potensial KSH	Yakkabog‘	past	past	1	0	1	2	0.39

Manba: Umumiy samaradorlik bahosi integrallashgan indeks asosida (ishlab chiqarish hajmi 0.4, investitsiya 0.2, eksport 0.15, diversifikatsiya 0.15, bandlik 0.1 og‘irlik koeffitsiyentlari bilan) hisoblangan model ko‘rsatkichi.

Qashqadaryo viloyatida hududiy sanoat hajmlarining tumanlar bo‘yicha konsentratsiyasi va dinamikasi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 39 116,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil yanvar–dekabr (dastlabki) yakunida bu ko‘rsatkich 47 788,6 mlrd so‘mga yetgan.[21] Bu o‘sish nominal (amaldagi narxlar) ko‘rsatkich bo‘lgani uchun uni real o‘sish sifatida talqin qilishda fizik hajm indeksi bilan qo‘shimcha tekshirish zarur, biroq tumanlar kesimida hududiy tarkib va konsentratsiyani baholash uchun mazkur qator juda qulay. Biroq ayrim tumanlarda sanoat hajmi va jon boshiga ko‘rsatkich pastligicha qolmoqda (masalan, Ko‘kdala, Qamashi, Chiroqchi, Yakkabog‘). Bu hududlarda KSH mexanizmlarini kuchaytirish, kichik biznesni kooperatsiya zanjirlariga integratsiyalash va infratuzilmani yaxshilash orqali sanoat faolligini oshirish zarur. EIZ va KSH samaradorligini baholash uchun integrallashgan indeks qo‘llaniladi:

$$I_{\frac{EIZ}{KSH}} = 0.4P + 0.3E + 0.3C$$ bu yerda:

P– ishlab chiqarish samaradorligi (hajm o‘sishi, jon boshiga ko‘rsatkich),

E– eksport va bozor faolligi,

C– kooperatsiya va mahalliylashtirish darajasi.

Hisob-kitob natijalariga ko‘ra tumanlar uch guruhga ajratilishi mumkin:

1. Yuqori samarador hududlar – sanoat hajmi va jon boshiga ko‘rsatkich yuqori, o‘sish barqaror (Nishon, Qarshi shahri, G‘uzor).
2. O‘rta samarador hududlar – ishlab chiqarish mavjud, lekin eksport va innovatsiya darajasi cheklangan (Koson, Muborak, Shahrisabz).
3. Past samarador hududlar – sanoat hajmi kichik, diversifikatsiya darajasi past (Ko‘kdala, Qamashi, Yakkabog‘, Chiroqchi) (2.1.1-rasmda xaritada keltiriladi).

[21] Qashqadaryo statistika boshqarmasi ma’lumotlari.



3-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlari bo‘yicha EIZ va KSH samaradorligi darajasining hududiy taqsimlanishi (uch guruhli model asosida)[22]

Mazkur tematik xarita Qashqadaryo viloyati tumanlarida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va kichik sanoat hududlari (KSH) samaradorligini uch guruhli tasnif asosida hududiy kesimda aks ettiradi. Xarita choropleth (rangli zonal) usulda ishlab chiqilgan bo‘lib, tumanlar sanoat ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti va ishlab chiqarish o‘sish sur’atlari asosida integrallashgan indeks bo‘yicha guruhlashtirilgan.

Innovatsion qabul qilish modeli va dinamik rivojlanish yondashuvi mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishning iqtisodiy-matematik asosini yaratadi hamda uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. Hududlararo diversifikatsiya sharoitida korxonaning innovatsion rivojlanishini baholash uchun, avvalo, innovatsiyalarni qabul qilish darajasi hamda innovatsion rivojlanishga tayyorlik darajasi integral ko‘rsatkichlar sifatida aniqlanadi.

1) Innovatsiyalarni qabul qilish darajasi (Acceptance Index)

Korxonaning innovatsiyalarni qabul qilish darajasi quyidagicha aniqlansin:

$$A_t = \sum_{i=1}^{m} w_i \cdot z_{it}, \sum_{i=1}^{m} w_i = 1,\ w_i \geq 0$$

bu yerda:

- A_t— t-davrdagi innovatsiyalarni qabul qilish indeksi;
- z_{it}— innovatsiyalarni qabul qilishni ifodalovchi normallashtirilgan ko‘rsatkichlar (masalan, texnologik yangilanish, R&D joriy etish, raqamlashtirish, mahsulot innovatsiyasi ulushi va h.k.);
- w_i— ko‘rsatkichlarning vazn koeffitsientlari.

Normallashtirish (min–max) usuli bilan:

[22] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

$$z_{it} = \frac{x_{it} - \min(x_i)}{\max(x_i) - \min(x_i)}$$

2) Innovatsion rivojlanishga tayyorlik darajasi (Readiness Index)

Korxonaning innovatsion rivojlanishga tayyorlik darajasi:

$$R_t = \sum_{j=1}^{n} v_j \cdot y_{jt}, \sum_{j=1}^{n} v_j = 1,\ v_j \geq 0$$

bu yerda:

- R_t— t-davrdagi innovatsion tayyorlik indeksi;
- y_{jt}— normallashtirilgan tayyorlik omillari (kadrlar salohiyati, moliyaviy barqarorlik, infratuzilma, boshqaruv moslashuvchanligi, kooperatsiya aloqalari va b.);
- v_j— vazn koeffitsientlari.

3) Xotira effektiga ega dinamik innovatsion rivojlanish modeli

Korxonaning innovatsion salohiyati (yoki innovatsion rivojlanish darajasi) P_t"xotira effekti"ga ega dinamik tizim sifatida ifodalanadi:

$$P_t = \lambda P_{t-1} + \alpha A_t + \beta R_t + \gamma D_t + \varepsilon_t, 0 < \lambda < 1$$

bu yerda:

- P_t— t-davrdagi korxonaning innovatsion rivojlanish (salohiyat) darajasi;
- λ— xotira (inerstsiya) koeffitsienti, ya'ni o'tgan davr natijasining joriy davrga ta'siri;
- A_t— innovatsiyalarni qabul qilish indeksi;
- R_t— innovatsion tayyorlik indeksi;
- D_t— hududlararo diversifikatsiya intensivligi (masalan, yangi hududiy bozorlar soni, kooperatsiya ulushi, tarmoq kengayishi ko'rsatkichi);
- α, β, γ— ta'sir koeffitsientlari;
- ε_t— tasodifiy omil.

4) Modelning mazmuniy talqini (qisqa)

Agar λ katta bo'lsa, korxonada avvalgi davrdagi investitsiya va innovatsion natijalar kumulyativ ta'sir ko'rsatadi. Bu holat hududlararo diversifikatsiya sharoitida innovatsion loyihalarni tanlash va kapital qo'yilmalarni rejalashtirishda muhim bo'lib, korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi. Biznes tuzilmalarini hududlararo diversifikatsiyalash asosida innovatsion rivojlantirish strategiyasini tanlash istiqbolini baholash ko'p bosqichli va tizimli jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon mintaqaviy sanoat sharoitida korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillarni kompleks tahlil qilishni talab etadi.

Diversifikatsiya vektori korxonaning qaysi yo'nalishda kengayishi - mahsulot, texnologiya, hudud yoki kooperatsiya yo'nalishida - amalga oshirilishini ifodalaydi. Vaziyat, tashqi va ichki omillar hamda innovatsion rivojlanish darajasiga qarab sanoat tizimi uchun yettita muqobil yoki kompleks (diversifikatsiya obyektining murakkabligiga bog'liq holda) strategik yondashuv qo'llanilishi mumkin (4-rasm).

Diversifikatsiya vektorlarini tanlashning ilmiy modeli



4-rasm. Sanoat tizimida diversifikatsiya vektorlarini tanlashning konseptual modeli[23]

4-rasmda diversifikatsiya strategiyasi (DIRS) markaziy blok sifatida ifodalangan bo‘lib, u yettita asosiy strategik yondashuv bilan bog‘langan: raqobatdosh, o‘zgaruvchan, modellashtirishga asoslangan, bahsli (ekspert baholashga asoslangan), matritsali, portfel va da’vogar (agressiv) yondashuvlar.

Raqobatdosh yondashuv raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish asosida diversifikatsiya yo‘nalishini aniqlashga qaratilgan. O‘zgaruvchan yondashuv tashqi muhit tendensiyalari va prognozlariga mos ravishda strategik variantlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Modellashtirishga asoslangan yondashuv iqtisodiy-matematik va ssenariy modellari yordamida muqobil variantlarni sinovdan o‘tkazishni ko‘zda tutadi. Bahsli (ekspert) yondashuv boshqaruv qarorlarini kollektiv muhokama va ekspert baholash orqali qabul qilishni anglatadi. Matritsali yondashuv ichki va tashqi omillarni tizimli taqqoslash asosida strategik tanlovni amalga oshiradi. Portfel yondashuvi bir nechta faoliyat yo‘nalishlarini birgalikda boshqarish orqali diversifikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Da’vogar (agressiv) yondashuv esa bozorda faol pozitsiyani egallash va raqobatchilarni siqib chiqarishga yo‘naltirilgan strategik qarorlarni ifodalaydi.

Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi uzluksiz transformatsiya jarayoni sifatida qaralishi lozim. Raqamli texnologiyalar, globallashuv, resurslar narxining o‘zgarishi va iste’molchilar talabining individuallashuvi sharoitida sanoat tizimi statik emas, balki dinamik muhitda faoliyat yuritadi. Shu sababli innovatsion rivojlanishni hududlararo diversifikatsiyalash bir martalik strategik qaror emas, balki vaqt davomida yangilanib boradigan moslashuvchan boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Sanoat tizimida diversifikatsiya jarayonini boshlovchi va yo‘naltiruvchi tashqi hamda ichki omillarni tizimli ravishda aks ettiradi. Modelda triggerlar (rag‘batlantiruvchi omillar) strategik qarorlar qabul qilish mexanizmining boshlang‘ich nuqtasi sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu yondashuv

[23] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini hududlararo diversifikatsiyalashda sabab-oqibat bog‘liqligini ochib beradi (5-rasm).



5-rasm. Sanoat tizimida diversifikatsiya jarayonini shakllantiruvchi tashqi va ichki muhit triggerlari modeli[24]

5-rasm modelning yuqori qismida tashqi va ichki muhit triggerlari joylashgan bo‘lib, ular sanoat tizimi rivojlanishining strategik asoslarini belgilaydi. Tashqi omillar qatoriga innovatsion bozor tendensiyalari, xomashyo bazasidagi o‘zgarishlar, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishi hamda makroiqtisodiy sharoitlar kiradi. Ichki triggerlar esa sanoat tizimining mavjud salohiyati, ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma darajasi va boshqaruv imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning “**Sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash asosida korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish yo‘nalishlari**” nomli uchunchi bobida qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi va diversifikatsiya holati tahlili, mintaqa sanoatni diversifikatsiyalash asosida korxonalar raqobat ustunligi va hududiy iqtisodiy salohiyatni baholash modeli va qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash asosida korxonalar raqobat ustunligini oshirish istiqbollari ishlab chiqilgan

Mintaqa sanoatini hududlararo diversifikatsiyalash jarayonida korxonalar raqobat ustunligi mustaqil hodisa sifatida emas, balki hududiy iqtisodiy salohiyat (HS), diversifikatsiya darajasi (DD) hamda dinamik input–output (DIO) tizimining o‘zaro integratsiyasi natijasi sifatida shakllanadi. Shunga ko‘ra, korxona raqobat

[24] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

ustunligi hududiy omillar bilan shartlangan ko‘p darajali iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Hududiy iqtisodiy salohiyat yuqori bo‘lgan sharoitda korxonalar:

- ishlab chiqarish infratuzilmasidan samarali foydalanish,
- innovatsion resurslar va malakali kadrlar bilan ta’minlanish,
- moliyaviy oqimlar va investitsiya imkoniyatlariga keng kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va mahsulot sifatini oshirish orqali ichki va tashqi bozorda ustunlikni ta’minlaydi.

Diversifikatsiya darajasi esa raqobat ustunligining barqarorlik komponentini belgilaydi. Tarmoqlar tarkibining muvozanatli rivojlanishi:

- bir tarmoqdagi kon’yunktura o‘zgarishlarining umumiy natijaga salbiy ta’sirini kamaytiradi,
- risklarni diversifikatsiya qiladi,
- hududiy ishlab chiqarish tizimini moslashuvchan qiladi.

Shu jihatdan, diversifikatsiya nafaqat tarkibiy ko‘rsatkich, balki korxona raqobat ustunligining institutsional va strukturaviy asosi hisoblanadi.

Dinamik input–output mexanizmi esa raqobat ustunligining vaqt bo‘yicha barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida qaraladi. Eksport-import oqimlari, kapitalning akkumulyatsiyasi va investitsiya hajmlarining dinamikasi ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiradi. Kapitalning yangilanishi va texnologik modernizatsiya jarayonlari esa mahsulot tannarxini pasaytirib, qo‘shilgan qiymatni oshirishga xizmat qiladi.

Korxona raqobat ustunligini umumlashtirilgan ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$RU = f(HS, DD, DIO)$$

bunda:

- HS – hududiy iqtisodiy salohiyat,
- DD – diversifikatsiya darajasi,
- DIO – ishlab chiqarish tizimining dinamik samaradorligi.

Mazkur bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, raqobat ustunligi individual korxona faoliyatidan tashqari, hududiy sanoat tizimining integrallashgan samaradorligiga ham bevosita bog‘liqdir.

Raqobat ustunligi quyidagi tarkibiy komponentlar orqali namoyon bo‘ladi:

1. Ishlab chiqarish samaradorligi – resurslardan foydalanish intensivligi va mahsulot tannarxining optimalligi.
2. Innovatsion faollik – yangi texnologiyalarni joriy etish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish darajasi.
3. Eksport salohiyati – tashqi bozorlarda barqaror pozitsiyani egallash imkoniyati.
4. Moslashuvchanlik – tarkibiy o‘zgarishlarga tez javob berish qobiliyati.

Natijada, hududiy iqtisodiy salohiyat va diversifikatsiya o‘rtasidagi sinergetik ta’sir:

$$SE = HS \times DD$$

korxona raqobat ustunligining multiplikativ o‘sishini ta’minlaydi. Ya’ni, salohiyat yuqori, ammo diversifikatsiya past bo‘lsa yoki aksincha bo‘lsa, raqobat ustunligi

to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Ularning birgalikdagi optimal darajasi esa sanoat tizimida barqaror raqobat muhitini shakllantiradi.

Shunday qilib, mintaqa sanoatini diversifikatsiyalash asosida ishlab chiqilgan model korxonalar raqobat ustunligini:

- statik ko‘rsatkichlar asosida emas,
- balki dinamik, tarkibiy va tizimli o‘zaro bog‘liqliklar orqali baholash imkonini beradi.

Bu esa hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish, investitsion ustuvorliklarni aniqlash va raqobatbardosh sanoat klasterlarini rivojlantirish uchun metodologik zamin yaratadi.

Qashqadaryo viloyati ma’muriy hududlarining innovatsion salohiyatini baholash maqsadida tanlab olingan X_1–X_6ko‘rsatkichlari bo‘yicha so‘nggi uch yillik (2023–2025-yillar) fizik indekslar hisoblandi hamda ularning o‘rtacha qiymatlari aniqlanib, hududlar kesimida integrallashgan ko‘rsatkich shakllantirildi. Mazkur yondashuv qisqa muddatli tasodifiy tebranishlarni bartaraf etish hamda hududlarning real innovatsion dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

Fizik indekslarning o‘rtacha qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\bar{I}_i = \frac{I_{i,2023} + I_{i,2024} + I_{i,2025}}{3}$$

bu yerda: $I_{i,t}$– i-ko‘rsatkichning t-yildagi fizik indeksi; $\bar{I}_i$– uch yillik o‘rtacha fizik indeks.

So‘ngra har bir hudud bo‘yicha innovatsion salohiyatning integral ko‘rsatkichi normallashtirilgan indikatorlar asosida hisoblandi:

$$IS_h = \sum_{i=1}^{6} w_i \cdot \bar{Z_{ih}}$$

bu yerda: IS_h– h-hududning innovatsion salohiyat integral indeksi; $\bar{Z_{ih}}$– normallashtirilgan o‘rtacha fizik indeks; w_i– ko‘rsatkichlarning og‘irlik koeffitsienti.

Natijalar 3-jadvalda hududlar kesimida keltirilgan bo‘lib, unda har bir ma’muriy hududning innovatsion salohiyat darajasi, uning sanoat tizimidagi nisbiy o‘rni hamda hududlararo tafovut ko‘rsatkichlari aks ettirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion salohiyatning hududlar kesimidagi taqsimoti bir xil emas. Ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi va innovatsion faollik yuqori bo‘lsa-da, investitsiya samaradorligi yoki mehnat unumdorligi past darajada shakllangan. Boshqa hududlarda esa nisbatan kichik ishlab chiqarish bazasiga qaramay, innovatsion mahsulot birligining investitsiya va xodimga nisbati yuqoriligi kuzatiladi. Bu esa hududlararo sanoat diversifikatsiyasi uchun turli start imkoniyatlari mavjudligini bildiradi.

Shu tariqa, uch yillik o‘rtacha fizik indekslar asosida hisoblangan integral ko‘rsatkich hududlarning sanoat tizimidagi innovatsion rivojlanish darajasini kompleks baholash, resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga taqsimlash hamda korxonalar raqobat ustunligini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval

Qashqadaryo viloyati hududlari sanoat tizimining innovatsion salohiyatini integral baholash natijalari (2023–2025-yillar o‘rtacha fizik indekslari asosida)[25]

№	Hudud nomi	X1	X2	X3	X4	X5	X6	IK_i
1	Qarshi shahri	105,74	112,35	109,46	111,36	109,78	118,48	111,13
2	Shahrisabz shahri	104,15	107,88	103,79	106,47	112,37	106,85	106,88
3	G‘uzor tumani	101,73	109,36	108,16	105,38	105,43	110,27	106,68
4	Dehqonobod tumani	100,36	105,37	107,48	106,39	104,45	103,45	104,56
5	Qarshi tumani	108,04	107,16	106,37	109,57	108,95	108,59	108,11
6	Qamashi tumani	110,07	113,70	106,88	108,51	112,54	115,64	111,18
7	Koson tumani	102,87	109,76	108,45	108,35	109,11	114,57	108,80
8	Kitob tumani	109,46	110,14	107,14	107,24	108,23	111,28	108,91
9	Mirishkor tumani	115,25	103,79	109,54	104,59	105,47	104,15	107,06
10	Muborak tumani	102,29	108,16	107,13	105,76	108,33	107,49	106,51
11	Nishon tumani	100,36	104,37	106,35	107,68	101,27	109,98	104,95
12	Kasbi tumani	102,10	121,18	109,91	113,47	109,54	114,25	111,59
13	Ko‘kdala tumani	72,44	104,95	104,44	108,25	103,38	108,44	99,38
14	Chiroqchi tumani	101,55	106,33	104,13	106,17	106,75	105,93	105,13
15	Shahrisabz tumani	104,22	105,45	105,18	109,15	107,14	109,47	106,75
16	Yakkabog‘ tumani	103,02	107,29	104,77	107,48	106,95	110,65	106,67

Tadqiqotlar natijasida o‘rtacha fizik indekslarining hisoblash metodikasi Integral ko‘rsatkich quyidagi formula asosida aniqlangan:

$$IK_i = \frac{\sum_{j=1}^{6} X_{ij}}{6}$$

yoki og‘irlikli shaklda:

$$IK_i = \sum_{j=1}^{6} w_j \cdot X_{ij}$$

bunda:

- X_{ij} – i-hududning j-ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtacha fizik indeksi;
- w_j – ko‘rsatkich og‘irligi (agar teng og‘irlik qo‘llansa $w_j = \frac{1}{6}$);
- IK_i – hududning innovatsion salohiyat integral ko‘rsatkichi.

Hisob-kitob natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion salohiyat darajasi hududlar kesimida sezilarli differensiyatsiyaga ega. Eng yuqori integral ko‘rsatkich Kasbi tumani (111,59), Qamashi tumani (111,18) va Qarshi shahri (111,13) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Eng past ko‘rsatkich esa Ko‘kdala tumanida (99,38) kuzatilmoqda. Bu natijalar hududlararo sanoat diversifikatsiyasi uchun boshlang‘ich imkoniyatlar notekis taqsimlanganligini ko‘rsatadi. Yuqori indeksga ega hududlar innovatsion ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish nuqtai nazaridan ustuvor zonalar sifatida qaralishi mumkin. Past ko‘rsatkichli hududlarda esa investitsion va texnologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur (6-rasm).

[25] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.



5-rasm. Qashqadaryo viloyati hududlarining innovatsion salohiyati[26]

Qashqadaryo viloyati ma’muriy hududlari bo‘yicha hisoblangan innovatsion salohiyat integral indeksi (IK) natijalari hududlararo sezilarli differensiyatsiyani namoyon etadi. Grafik tahlil natijalariga ko‘ra, hududlar innovatsion rivojlanish darajasiga qarab uch toifaga ajratildi: yuqori, o‘rta va past salohiyatli hududlar.

Yuqori innovatsion salohiyatga ega hududlar (IK ≥ 110) sifatida Kasbi tumani (111,59), Qamashi tumani (111,18) hamda Qarshi shahri (111,13) ajralib turadi. Mazkur hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi, innovatsion faollik darajasi va investitsiya samaradorligi ko‘rsatkichlari yuqori darajada shakllangan. Bu hududlar viloyat miqyosida innovatsion rivojlanishning tayanch zonalari sifatida baholanishi mumkin. Ularning ustunligi ishlab chiqarish infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi, investitsion faollik va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari bilan izohlanadi. O‘rta innovatsion salohiyatga ega hududlar (105 ≤ IK < 110) viloyatning asosiy qismini tashkil etadi. Ushbu guruhga Kitob, Koson, Qarshi tumani, Shahrisabz shahri, G‘uzor, Muborak, Mirishkor, Shahrisabz tumani va Yakkabog‘ kiradi. Mazkur hududlarda innovatsion jarayonlar mavjud bo‘lsa-da, ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha nomutanosiblik kuzatiladi. Masalan, ishlab chiqarish hajmi yuqori bo‘lishiga qaramay investitsiya samaradorligi past yoki aksincha, innovatsion mahsulot ulushi yuqori bo‘lsa-da, qo‘shilgan qiymat yetarli darajada shakllanmagan holatlar mavjud. Bu esa diversifikatsiya jarayonini maqsadli boshqarish zaruratini ko‘rsatadi. Past innovatsion salohiyatli hududlar (IK < 105) qatoriga Ko‘kdala tumani (99,38), Dehqonobod tumani (104,56) va Nishon tumani (104,95) kiradi. Mazkur hududlarda sanoatning innovatsion komponenti yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, investitsiya va texnologik yangilanish darajasi pastligi kuzatiladi. Ayniqsa, Ko‘kdala tumanida indeksning 100 dan past bo‘lishi sanoat tizimida strukturaviy nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu hududlarda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsion rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

[26] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

Modelning iqtisodiy mazmuni taklif etilayotgan hududiy salohiyatni sanoat tuzilmasi bilan integratsiyalaydi, Diversifikatsiya darajasi orqali tarmoqlararo muvozanatni hisobga oladi, korxona darajasidagi natijaviy ko‘rsatkich bilan bog‘laydi, sinergik ta’sirni matematik jihatdan ifodalaydi, dinamik input-output yondashuv bilan mos keladi (7-rasm).



6-rasm. Mintaqa sanoatini diversifikatsiyalash asosida korxonalar raqobat ustunligi va hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashning integrallashgan modeli (dinamik input-output yondashuvi asosida)[27]

Mazkur model mintaqa sanoatini hududlararo diversifikatsiyalash jarayonini hududiy iqtisodiy salohiyat (HS), diversifikatsiya darajasi (DD), dinamik input-output mexanizmi (DIO) hamda korxona raqobat ustunligi (RU) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida tizimli baholashni nazarda tutadi.

Hozirgi davrda mazkur tarmoqda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, ishlab chiqarish hajmidagi keskin o‘zgarishlar va bosqichma-bosqich tezlashuv jarayonlari to‘rtinchi darajali polinom modelida kuzatilayotgan egri chiziqli dinamikaga mos keladi. Shu bois, iqtisodiy mazmun va statistik mezonlar birgalikda baholangan holda, to‘rtinchi darajali regressiya tenglamasi prognozlash uchun eng maqbul va adekvat model sifatida tanlab olindi (4-jadval).

4-jadval

Sanoat ishlab chiqarish hajmi va uni belgilovchi omillarning trend-dinamik regressiya tenglamalari[28]

Tanlab olingan omil turlari	Regressiya tenglamasi	R2
Qashqadaryo viloyati sanoati asosiy ko‘rsatkichi (mlrd. so‘m) Y	Y= 2,9747x4 - 84,86x3 + 897,99x2 - 2649,6x + 7219,9	$R^2 = 0{,}9448$
Viloyatda iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m) X1	X1= -0,0323x4 - 2,446x3 + 63,011x2 - 56,675x + 676,79	$R^2 = 0{,}8941$
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlar ishlashi, (mlrd. so‘m),	X2= 0,3993x5 - 13,01x4 + 145,93x3 - 701,57x2 + 1555,6x + 2436,7	$R^2 = 0{,}787$

[27] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.
[28] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

X2		
Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari (mlrd. so‘m) X3	X3= 3,0006x4 - 73,688x3 + 663,78x2 - 1724,2x + 2603,8 R^2 = 0,9948	R^2 = 0,9948
Boshqa sohalar (mlrd. so‘m) X4	X4= -0,4787x4 + 15,082x3 - 104,67x2 + 273,37x - 29,798	R^2 = 0,9908
Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste’mol mollari (ming. so‘m) X5	X5= 0,0649x5 - 2,4957x4 + 33,663x3 - 189,5x2 + 509,25x - 143	R^2 = 0,8713
Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ming. so‘m) X6	X6= 0,8407x4 - 24,715x3 + 265,17x2 - 797,54x + 2531 R^2 = 0,929	R^2 = 0,929

Hosil qilingan trend modellari asosida 5 yillik prognoz natijalari bilan bir qatorda, ushbu tendensiya saqlanib qolishi sharti bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun ham kutilayotgan o‘zgarishlar baholandi. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyati sanoati asosiy ko‘rsatkichi 2025-yil holatiga nisbatan 2028-yilda 3,07 barobarga (207%) oshishi kutilayotgan bo‘lsa, trend dinamikasi davom etgan taqdirda 2029-yilda 3,84 barobarga (284%), 2030-yilda esa 4,81 barobarga (381%) oshishi ehtimoli mavjud (5-jadval).

5-jadval

Qashqadaryo viloyati sanoat ko‘rsatkichlarining trend modellari orqali olingan prognozi (mlrd. so‘mda)[29]

Yillar	Qashqadaryo viloyati sanoati asosiy ko‘rsatkichi (mlrd. so‘m)Y	Viloyatda iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m) X1	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlar ishlashi (mlrd. so‘m) X2	Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari (mlrd. so‘m) X3	Boshqa sohalar (mlrd. so‘m) X4	Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste’mol mollari (ming. so‘m) X5	Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ming. so‘m)X6
2026	33715.3	7404.3	5018.4	29299.7	7187.6	1409.5	9378.5
2027	42075.1	8023.4	11526.7	39765.6	7952.4	1871	11517.4
2028	53228.5	8633.5	23423	53708.8	8484.2	2840.4	14398.3
2029	67844.4	9232.8	42959.3	71875.5	8684	4592.5	18205.8
2030	86663	9820.3	72890.3	95083.8	8441.1	7474.5	23144.8

Viloyatda iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi 2025-yilga nisbatan 2028-yilda 2,04 barobarga (104%) o‘sishi prognoz qilingan. Ushbu o‘sish tendensiyasi saqlansa, 2029-yilda ko‘rsatkich 2,35 barobarga (135%), 2030-yilda esa 2,71 barobarga (171%) yetishi kutiladi. Viloyatda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarning ishlash hajmi bo‘yicha prognoz natijalari keskin o‘sish dinamikasini ko‘rsatmoqda: 2025-yilga nisbatan 2028-yilda 37,13 barobarga oshishi kutilayotgan bo‘lsa, trend saqlangan taqdirda 2029-yilda 76,50 barobarga, 2030-yilda esa 157,62 barobarga oshishi ehtimoli shakllanadi. Mazkur natijalar ushbu ko‘rsatkichning yuqori volatilligi va tashqi omillarga sezgirligini anglatadi. Shu bois amaliy qarorlar qabul qilishda tog‘-kon yo‘nalishi bo‘yicha prognozlarni ssenariyli yondashuv

[29] Mualif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan

(optimistic-bazaviy-pessimistik) asosida qo‘shimcha aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

1. Mintaqada sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash korxonalarning raqobat ustunligini shakllantirish va hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Qashqadaryo viloyati misolida sanoat tarmoqlarining rivojlanishini baholashda ishlab chiqarish hajmi, yalpi qo‘shilgan qiymat, investitsiya faolligi, eksport salohiyati, mehnat unumdorligi, innovatsion rivojlanish va hududiy konsentratsiya ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish zarurligi aniqlandi. Hududlararo diversifikatsiyalash ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, sanoatning hududiy nomutanosibligini kamaytirish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim iqtisodiy mexanizmi sifatida baholandi.

2. Sanoat tarmoqlarining hududiy rivojlanishi va diversifikatsiya darajasini baholash uchun ishlab chiqarish, investitsiya, eksport, bandlik, innovatsion salohiyat va hududiy konsentratsiya ko‘rsatkichlarini qamrab oluvchi kompleks indikatorlar tizimi shakllantirildi. Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI) va diversifikatsiya indeksi (DI) asosida sanoat ishlab chiqarishining alohida tarmoqlar hamda hududlarda jamlanish darajasini aniqlash, tarkibiy nomutanosibliklarni baholash va iqtisodiy risklarni aniqlash imkoniyatlari asoslandi. Mazkur yondashuv hududiy sanoat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining 2016-2025-yillardagi rivojlanish dinamikasi va hududiy tarkibi tahlil qilinib, ishlab chiqarish hajmining o‘sishi bilan bir qatorda tumanlar va shaharlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, Nishon, G‘uzor tumanlari va Qarshi shahrida sanoat ishlab chiqarishining yuqori darajada konsentratsiyalashgani, ayrim tumanlarda esa sanoat salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi kuzatildi. Ushbu holat sanoat ishlab chiqarishini hududlar bo‘yicha muvozanatli rivojlantirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatdi.

4. Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining tarkibiy transformatsiyasi va diversifikatsiya imkoniyatlari o‘rganilib, xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati asoslandi. Xususan, oziq-ovqat, to‘qimachilik, kimyo, qurilish materiallari va boshqa qayta ishlash sanoati tarmoqlarini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish zanjirlarini kengaytirish, mahalliylashtirish darajasini oshirish va korxonalarning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobat ustunligini mustahkamlash imkoniyatlari belgilandi.

5. Korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ifodalovchi RU = f(KS + BS + TI + DS) integratsiyalashgan modeli taklif etildi. Mazkur modelda kapital va bozor salohiyati (KS), boshqaruv va inson kapitali (BS), texnologik va innovatsion salohiyat (TI), davlat qo‘llab-quvvatlashi hamda hududiy sanoat siyosati (DS) korxonalar raqobat ustunligini belgilovchi

asosiy omillar sifatida qaraldi. Model asosida hududlararo diversifikatsiyalash orqali ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, innovatsion faollikni kuchaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy risklarni hududlar bo‘yicha taqsimlashning ustuvor yo‘nalishlari asoslandi.

6. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va kichik sanoat zonalarining (KSH) hududlararo sanoat diversifikatsiyasiga ta’sirini baholash uchun uch blokli R-P-M integrallashgan indeks modeli ishlab chiqildi. Ko‘rsatkichlarni min-max usulida 0-1 oralig‘ida normallashtirish va ularni yagona integral indeksga birlashtirish asosida sanoat zonalarining qiyosiy samaradorligini baholash metodikasi taklif etildi. Mazkur yondashuv orqali hududlarni yuqori, o‘rta va past samaradorlik guruhlariga ajratish, investitsiya resurslarini maqsadli taqsimlash, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda hududiy sanoat siyosatini differensial amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari takomillashtirildi.

7. Mintaqa sanoat korxonalarining raqobat ustunligini baholash uchun hududiy iqtisodiy salohiyat (HS), diversifikatsiya darajasi (DD) va dinamik input-output omillariga (DIO) asoslangan HS-DD-DIO-RU integrallashgan modeli taklif etildi. Modelda hududiy iqtisodiy salohiyat va diversifikatsiya darajasining o‘zaro ta’sirini ifodalovchi HS × DD komponenti orqali sanoat tarkibining muvozanatlashuvi va mavjud resurslardan samarali foydalanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash yondashuvi asoslandi. Ushbu model sanoat korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirishda hududiy resurslar, ishlab chiqarish aloqalari, kapital harakati va tarkibiy diversifikatsiya omillarini kompleks hisobga olish imkonini beradi.

8. Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi, investitsiya faolligi va innovatsion salohiyati o‘rtasidagi tafovutlarni hisobga olgan holda hududlararo diversifikatsiyani amalga oshirishning differensial yondashuvi asoslandi. Sanoat salohiyati yuqori hududlarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va qiymat zanjirlarini chuqurlashtirish, sanoat salohiyati nisbatan past hududlarda esa kichik sanoat zonalarini rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mahalliy tadbirkorlikni rag‘batlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

9. Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida ekonometrik modellashtirish va trend tahlili asosida 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Prognozlash jarayonida sanoat ishlab chiqarishining o‘sish dinamikasi, tarkibiy o‘zgarishlar va hududlararo diversifikatsiya imkoniyatlarini hisobga olish yondashuvi qo‘llanildi. Olingan natijalardan investitsiya siyosatini takomillashtirish, istiqbolli sanoat tarmoqlarini aniqlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va hududlarning sanoat salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan o‘rta muddatli strategik qarorlarni asoslashda foydalanish imkoniyatlari belgilandi.

10. Tadqiqot natijalari asosida Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarini hududlararo diversifikatsiyalash orqali korxonalar raqobat ustunligini

shakllantirishning ustuvor tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Jumladan, hududlarning nisbiy ustunliklariga asoslangan sanoat ixtisoslashuvini takomillashtirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, tarmoqlararo kooperatsiya va sanoat klasterlarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda investitsiyalarni hududlarning iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiq taqsimlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif etildi. Mazkur tavsiyalarni amalga oshirish sanoat ishlab chiqarishining hududiy muvozanatini yaxshilash, korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mintaqada barqaror raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qilishi asoslandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.11.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАХМОНОВА ТИЛЛАОЙ МАЛИК КИЗИ

ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ ПУТЁМ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ В РЕГИОНЕ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

08.00.12 – Региональная экономика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Карши – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.3.PhD/Iqt7393

Докторская диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz), а также на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Халимов Жавлонбек Шахриёрович** Доктор экономических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Эргашев Эркин Ирокович** доктор экономических наук, профессор
	Тошев Нурбек Жанон угли доктор философии по экономическим наукам (PhD), и. о. доцента
Ведущая организация:	**Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/2025.27.12.I.11.03 при Каршинский государственный университет, которое состоится «26» 11 2026 года в 14⁰⁰ часов. Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, дом 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10, e-mail: info@qarshidu.uz.

С диссертацией доктора философии (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинский государственный университет (регистрационный номер №585). Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, дом 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10).

Автореферат диссертации разослан «13» 11 2026 года.

(Протокола рассылки №42 от «13» 11 2026 года).

Д.Х. Набиев
Председатель совета по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

Г.А. Набиев
Учёный секретарь совета по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

А.О. Очилов
Председатель научного семинара при совете по присуждению учёных степеней д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность темы диссертации. На современном этапе экономического развития мира одной из приоритетных задач является сокращение социально-экономических различий между регионами, обеспечение сбалансированного территориального развития промышленного потенциала и укрепление конкурентных преимуществ предприятий. Особенно в условиях усиления глобальной конкуренции межрегиональная диверсификация отраслей промышленности выступает важным фактором, обеспечивающим устойчивый рост валового внутреннего продукта (ВВП)[30]. Международная практика показывает, что уровень экономического развития регионов характеризуется существенными различиями по объёму ВВП и его структурному составу. По данным Всемирного банка, в 2023 году объём мирового ВВП превысил 100 трлн долларов США, основная доля которого приходится на промышленность и сферу услуг[31]. В развитых странах доля промышленности в ВВП формируется преимущественно за счёт отраслей, создающих высокую добавленную стоимость, что обеспечивает их глобальную конкурентоспособность.

В мировой практике диверсификация промышленности позволяет не только увеличивать объёмы производства, но и сокращать региональные диспропорции, создавать новые рабочие места и обеспечивать эффективное использование местных сырьевых ресурсов. В условиях усиления глобализации и повышения уровня конкуренции на мировых рынках возникает необходимость применения новых подходов к конвергенции. Межрайонная конвергенция является важной социально-экономической задачей, направленной на обеспечение устойчивого развития регионов, экономического роста, развитие производства и глобальных виртуальных фабрик, использование конвергентных когнитивных технологий в обществе, а также достижение интеграции науки и общества. С этой точки зрения формирование конкурентных преимуществ предприятий на основе межрегиональной диверсификации отраслей промышленности Кашкадарьинской области приобретает особую научную и практическую значимость. В исследовании, опираясь на опыт развитых стран, изучаются экономические механизмы межрегиональной диверсификации промышленности, определяются факторы формирования конкурентных преимуществ предприятий, а также разрабатываются научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию региональной промышленной политики на примере Кашкадарьинской области.

В Новом Узбекистане одной из приоритетных задач является социально-экономическое развитие регионов, повышение промышленного потенциала и сокращение различий между районами. В Стратегии «Узбекистан – 2030» определены цели ускорения экономического роста посредством сокращения

[30]World Bank. World Development Indicators 2026. – Washington DC, 2024. https://econdata.com/dbinfo/releases/wbwt/

[31]OECD. Regional Development Policy Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-regional-outlook-2023_92cd40a0-en.html

бедности, повышения доходов населения и развития отраслей промышленности, создающих высокую добавленную стоимость. В реализации данных задач важное значение имеет межрегиональная диверсификация отраслей промышленности. Диверсификация способствует эффективному использованию производственного потенциала регионов, созданию новых рабочих мест, увеличению объёмов добавленной стоимости в промышленности и формированию конкурентных преимуществ предприятий. Согласно данным Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, в 2025 году объём производства промышленной продукции в Узбекистане составил 1,1 квадриллиона сумов. Вместе с тем существенные различия в объёмах промышленного производства в региональном разрезе свидетельствуют об актуальности задачи обеспечения сбалансированного развития промышленного потенциала по территориям. В частности, в 2025 году в городе Ташкенте было произведено промышленной продукции на 207,3 трлн сумов, в Навоийской области — на 195,2 трлн сумов, тогда как в Кашкадарьинской области данный показатель составил 47,8 трлн сумов, а в Сурхандарьинской области - 18,8 трлн сумов[32]. Указанные показатели свидетельствуют о необходимости анализа экономической специализации регионов, имеющихся производственных мощностей и различий в структуре промышленности.

Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии “Узбекистан – 2030”»[33], Указ от 13 марта 2024 года № УП-49 «О мерах по совершенствованию системы оценки эффективности деятельности республиканских и местных органов исполнительной власти, а также хозяйственных объединений»[34], Указ от 30 декабря 2022 года № УП-287 «О мерах по классификации территорий республики и внедрению дифференцированной системы поддержки предпринимательства»[35], Указ от 20 декабря 2024 года № УП-223 «О мерах по созданию новой системы обеспечения высоких темпов экономического роста и занятости населения в регионах, а также повышению роли и ответственности местных хокимиятов в данном направлении»[36] постановление от 8 августа 2017 года № ПП-3182 «О приоритетных мерах по обеспечению ускоренного социально-экономического развития регионов»[37], постановление от 15 августа 2024 года № ПП-295 «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению промышленного потенциала регионов»[38], а также другие нормативно-правовые документы, касающиеся развития регионов, определяют задачи, реализации которых в определённой степени служит данное диссертационное исследование.

[32]Данные Национального комитета Республики Узбекистан по статистике. 10 сентября 2026 года. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/70165-zbekiston-sanoatida-ajsi-ududlar-etakchi-3
[33] Официальный веб-сайт Республики Узбекистан. Электронный ресурс: https://lex.uz/uz/docs/-6600413
[34] Официальный веб-сайт Республики Узбекистан. Электронный ресурс: https://lex.uz/uz/docs/-6837135
[35] Официальный веб-сайт Республики Узбекистан. Электронный ресурс: https://lex.uz/uz/docs/-6333225
[36] Официальный веб-сайт Республики Узбекистан. Электронный ресурс: https://lex.uz/uz/docs/-7271094
[37] Официальный веб-сайт Республики Узбекистан. Электронный ресурс: https://lex.uz/uz/docs/-3302438
[38] Официальный веб-сайт Республики Узбекистан. Электронный ресурс: https://lex.uz/uz/docs/-7069813

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы формирования конкурентных преимуществ предприятий посредством межрегиональной диверсификации отраслей промышленности в регионе широко исследованы в научных трудах многих зарубежных и отечественных учёных. Проблемам разработки механизмов конвергенции в социально-экономическом развитии регионов уделено внимание в работах зарубежных учёных Р.К. Аллена, А. Гершенкрона, Кс.Кс. Сала-и-Мартина, А. Мэддисона, Я. Тинбергена, С. Дорика, Дж. Брэдфорда[39], а в странах СНГ Н.П. Кузнецовой, Г.В. Черновой, С.Г. Головиной, С.В. Пугина, А.В. Бровковой, Д.Ю. Руденко, К.Ю. Зинковской, А.В. Коротаева[40] и других.

В нашей республике отдельные аспекты формирования конкурентных преимуществ предприятий посредством межрегиональной диверсификации отраслей промышленности в регионе также были исследованы. В этой области вопросами развития промышленности в районах, маркетинга и эконометрики занимались такие учёные-экономисты, как Б.Э. Тагаев, Х.Н. Абдуллаева, Х.С. Мухитдинов[41] другие.

Вместе с тем процессы межрегиональной диверсификации отраслей промышленности в разрезе областей и районов исследованы недостаточно комплексно. В частности, причины формирования различий в промышленном развитии между районами, их влияние на

---

